

Namunali mahallaning ORASTA QIZLARI

Poytaxtimizning Yashnobod tumanida 57 ta mahalla bo'lib, shundan to'rttasi namunali mahalla degan nomga munosib topildi. Ular orasida bizning «O'rta masjid» mahallasi borligi qalbimizga o'zgacha faxr bag'ishlaydi. Shu bilan birga, katta mas'uliyat ham yuklaydi, – deydi mahallaning diniy ma'rifat va ma'naviyat-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi Mahbuba opa Ro'zaliyeva.

«O'rta masjid» mahallasidagi «Orasta qizlar davrasi» nafaqat mahallada o'tkaziladigan tadbirlarda, balki tuman, shaharda bo'lib o'tadigan ko'rik-tanlovlarda, viktorina va uchrashuvlarda ham faol ishtirok etishadi. Jumladan, ular «Mahalla mening taqdirimda» tanlovida ham munosib qatnashib,

tumanda g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Bu kabi yutuqlarda, albatta, mahalla faollari hamda tinib-tinchimas, fidoyi inson Mahbuba opaning hissasi katta.

Biz «Namunali mahalla» deb tan olingan mahalla yoshlariga har sohada omad tilaymiz va o'z yurtiga munosib insonlar bo'lishiga ishonamiz.

OBUNA - 2017
TAHRIRIYATDAN
QO'NG'IROQ
QILYAPMIZ

Ko'hna va hamisha navqiron Buxoro o'zining betakror jozibasini dunyo ahlini asrlar bo'yi lol qoldirib kelmoqda. Yana bir ibratli jihati, buxorolik yoshlar buyuk bobolariga munosib voris sifatida ham turli sohalarda yetakchilar safidan o'rin olmoqdalar.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Mirzohid Daminov bilan qo'ng'iroqlashganimizda, ustozning o'quvchilar yutug'idan mamnunligini eshitib, ko'nglimiz zavqqa to'ldi.

– E'tibor bergan bo'lsangiz, bolalar nashrlariga obuna bo'lish, gazeta bilan ijodiy hamkorlik qilishda viloyatimiz yoshlari yildan yilga faollashib bormoqdalar, – deydi Mirzohid aka. – Yodingizda bo'lsa, matematika fanidan Gretsiyada o'tkazilgan jahon olimpiadasida respublikamiz o'quvchilari tomonidan 11 ta medal qo'lga kiritilgan edi. Shulardan 9 tasining aynan Qorako'l tumanidagi akademik litsey o'quvchilari tomonidan olinishi quvonchli voqea bo'ldi. Ko'plab nashrlar tomonidan ular g'alabasi har tomonlama yoritildi. Albatta, bunday sa'y-harakatlar o'z samarasini beradi. Fan olimpiadalari, «Bilimlar bellashuvi», musiqa va sport sohasida yutuqlarga erishgan o'quvchilarni tezkorlik bilan gazetada yoritilishi tengdoshlariga ibrat bo'lib, iqtidorli o'g'il-qizlar safi kengayib borishiga sabab bo'ldi.

Ayni chog'da respublikamiz bo'ylab barcha nashrlarga obuna mavsumi qizg'in bormoqda. O'quvchilar o'zlarining minbari bo'lgan – «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishda har doimgidan-da faolligi barchamizni quvontirmoqda.

O'z navbatida, tahririyat ham ularning har bir yutug'ini o'z yutug'idek qabul qiladi. Yangi yildagi ijodiy hamkorligimiz esa yanada samarali bo'lishiga ishonchimiz komil.

Nurbek QIDIRALIYEV
yozib oldi



Aziz o'quvchilar!
«TONG YULDUZI»
gazetasiga
2017-YIL UCHUN OBUNA
mavsumi davom etmoqda!
Siz maktab kutubxonasi
yoki uyingizga yaqin aloqa
bo'limlarida obuna
bo'lishingiz mumkin.

Nashr ko'rsatkichi -198

N. SULTONOV olgan surat

Bolalikda ko'pchilik uchuvchi bo'lishni, qog'oz va turli buyumlardan samolyot yasab, ko'kka parvoz qilishni orzu qiladi. Osmonda uchib borayotgan «temir qanot»larga qarab, unga o'zining eng beg'ubor va ezgu niyatlarini aytadi.



«ORZU LAYNERI»DA UCHAR ORZULAR

Nega ko'p bolakaylar shunday orzu qilar ekan-a, deb o'ylayman. Nazarimda, o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'ygan, tug'ilib o'sgan jonajon yurti rivoji uchun ulug' ishlarga qodir insonlarga ana shunday baxtga munosib bo'lsa kerak.

Yaqinda yurtimizga «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi tomonidan xarid qilingan navbatdagi «Boeing-787-8 Dreamliner» olib kelingani haqidagi xabarni eshitgan ko'pchilik yoshi katta yurtdoshlarimiz bolaligida aynan ana shunday samolyotning uchuvchisi bo'lishni orzulagan bo'lsa, ne ajab?! Qizig'i, uning nomi ham o'zbek tilida «Orzu layneri» degan ma'noni anglatadi. Xabaringiz bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligi arafasida ham xuddi ana shu samolyotning dastlabkisi Milliy aviakompaniyamiz tomonidan xarid qilingan edi.

Mazkur havo kemasining aksariyat qismi noyob materiallardan yasalgan. Bu uning vaznini yengillashtirish, parvoz xususiyatlarini yaxshilash imkonini beradi. Samolyot xavfsizlik va te-

jamkorlik nuqtayi nazaridan ham qator qulayliklarga ega. Shu bois, u uzoq va juda uzoq masofalarga bemaol ucha oladi. Soha mutaxassislarining fikricha, ushbu zamonaviy «temir qanot» to'xtovsiz ravishda 15700 kilometr masofaga 16 soat parvoz qilish imkoniga ega. Endilikda «Orzu layneri» bilan yurtdoshlarimiz O'zbekistondan Kanada, AQSH va Afrika mamlakatlari-ga to'g'ridan-to'g'ri uchishlari mumkin. Samolyot 250 nafardan 330 nafargacha yo'lovchi tashish imkoniga ega.

Laynerning alohida jihatlardan yana biri, uning murakkab va mukammal tuzilishga ega dizayni va ichki ko'rinishidir. Bu esa yo'lovchilar o'zlarini salonda har tomonlama qulay his etishlariga zamin yaratadi.

Aziz o'quvchi, Sizga ham «Orzu layneri» bilan ko'kka parvoz qilishni tavsiya qilamiz. Ana shunda uning imkoniyatlariga o'zingiz ham bevosita guvoh bo'lasiz.

Sa'dullo IBROHIMJON o'g'li

Saylov – 2016

SAVOLINGIZGA JAVOB BERAMIZ

– Salomatligi yoki boshqa sabablarga tufayli saylov uchastkasiga kela olmaydigan fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishi uchun milliy qonunchiligimizda qanday qulayliklar belgilangan?

Madamin MAHMUDOV, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

Savolingizga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Otabek Abdug'aniyev javob beradi.

– Salomatligi yoki boshqa sabablarga tufayli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok eta olmaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining haq-huquqlari qonun bilan himoyalangan. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunning 31-moddasi 6-bandi hamda «O'zbekiston Respublikasi fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasida ayrim saylovchilar salomatligining yomonligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra ovoz berish uchun ajratilgan binoga kela olmagan hollarda, uchastka saylov komissiyasiga tegishli iltimos bilan murojaat etish huquqiga ega, bu komissiya ovoz berishni ana shu saylovchilar turgan joyda tashkil etishi shart, deya belgilab qo'yilgan. Qonunga muvofiq saylov uchastkasining kamida 2 nafar a'zosi uzli fuqaroning uyiga ko'chma saylov qutisini olib boradi va saylovchining ovoz berishini tashkil etadi.

S. TURSINOV yozib oldi

Andijon shahridagi 30-umumta'lim maktabi o'quvchilari sevimli «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishda bu yil ham tengdoshlariga ibrat ko'rsatishmoqda.



Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidagi 25-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida bo'lganimizda, yuqorida aytilganlarga yana bir bor ishonch hosil qildik.

– Maktabimiz matematika va fizika fanlariga ixtisoslashtirilgan, – deydi biz bilan suhbatda maktab direktori, «Xalq ta'limi a'lochisi» Komiljon O'rolov. – Matematika fani o'qituvchisi Asatilla Boytemirov «O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi» ko'krak nishoni sohibi, fizika fani o'qituvchisi Asadulla Fayzullayev – «Xalq ta'limi a'lochisi», ona tili va adabiyot

TA'LIM-TARBIYADA NAMUNA MAKTAB

Keyingi yillarda

umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, ularning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash yo'lida samarali ishlar amalga oshirildi. Quvonarlisi, bu kabi ezgu harakatlar o'zining yuksak samarasini bermoqda.

fani o'qituvchisi Gulzara Hamzayeva – «Do'stlik» ordeni sohibi. Kasbidan e'zoz topayot-

gan bu kabi muallimlar maktabda «Ustoz – shogird» an'anasi asosida yosh o'qituvchilarga o'rnak bo'lib kelmoqda.

O'z navbatida, maktab o'quvchilarining ta'lim va sport sohasida qo'lga kiritayotgan yutuqlari bilan qiziqdik. Ko'zlari chaqnaq turgan, ilmga chanqoq o'g'il-qizlarning yorqin rejaları, orzu-niyatlarini eshitib, beixtiyor zavqimiz ortdi. Bu yil maktabning 14 nafar

o'quvchilar bilimini sinovdan o'tkazadigan jiddiy imtihon hisoblanadi. Ushbu tanlovda ham o'quvchilar muvaffaqiyatli ishtirok etdilar. Bellashuvlarning viloyat bosqichida 9 nafar o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, shulardan 3 nafari sovrinli o'rnlarni egalladi. Bu yutuqlarga erishishda fizika fani o'qituvchisi Muhabbat Absalomova, iqtisod fani o'qituvchisi Xayrulla Shaymatov, rus tili fani o'qituvchisi Nargiza Abdullayeva hamda biologiya fani o'qituvchisi Feruza Safarovalarning xizmatlari katta bo'ldi.

Maktab o'quvchilari sport sohasida ham peshqadam. Jumladan, «Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan Zomin tumanida, Qoraqalpog'iston Respublikasida voleybol bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda 7-«A» sinf o'quvchi qizlari 2-o'rinni egalladi.

Zarbdordagi bu ilg'or maktab yutuqlari haqida ko'plab misollarni keltirish mumkin. Eng asosiysi, bu ahil jamoa bundan-da katta natijalarga erishishiga yana bir bor ishonch hosil qildik.

o'quvchisi «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichi g'olibi bo'libdi. 6-sinf o'quvchisi Feruza Pardaboyeva esa biologiya fanidan bellashuvning viloyat bosqichida 2-o'rin sohibi ekan. Ma'lumki, fanlar olimpiada-

Yusufjon HAMDAMOV

Bizga maktub yo'lbsiz...

18-noyabr - O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun

ENG GO'ZALI MENING BAYROG'IM

Yaqinda oynayi jahon orqali Amerika haqidagi ko'rsatuvda osmono'par baland binoni ko'rsatishdi.

Bino peshtoqida juda ko'p bayroqlar hilpirab turardi. Barchasi bir-biridan ko'rkam. Men ular orasidan o'z yurtim - O'zbekistonning bayrog'ini ko'rdim. Yurtimning bayrog'i boshqa bayroqlar ichra eng chiroyli ekanligidan juda faxrlandim. Dars vaqtida bu haqda ustozimga gapirib berdim. Ustozim Husnora opa: - Qizim, juda yaxshi anglabsan. Bu bino Amerikada joylashgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorgohi. Hilpirayotgan bayroqlar esa unga a'zo bo'lgan davlatlarning ramzidir. Vatan bayrog'i chindan ham qiyosiz. Har birimiz bu bayrog' bilan faxrlanishimiz kerak! Bu yurtga e'tiqod Vatan tuyg'usidir, - dedilar.

Madinabonu UMRZOQOVA, poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 91-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

5-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari - bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.



«MEN - YOSH VATANPARVAR» RESPUBLIKA TANLOVIGA VATANIMGA XIZMAT QILAMAN

Men harbiy bo'lishni orzu qilaman. Harbiy bo'lish uchun sport bilan shug'ullanish kerakligini ham bilaman. Bolaligimdan sport maktabiga qatnab, futbol bilan shug'ullanib kelaman. Yana shaxmat-shashka o'ynashga qiziqqaman. Maktab bo'yicha musobaqada 2-o'rinni oldim. Maktab ma'muriyati hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandim. Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy Vatan tushunchasini ona yurt, tug'ilib o'sgan joy ma'nolarida ishlatgan. Vatan - ona kabi muqaddas, aziz. Vatanni sevuvchi, ana shunday asl fazilatlar egasi bo'lgan insonni Vatanparvar deyiladi.

Vatanni katta oilaga o'xshatish mumkin. Unda yashovchi insonlar esa ana shu oilaning a'zolaridir. Agar oila hamjihat bo'lib, tinch-totuv yashasalar, bunday oila qut-barakali bo'ladi, hammaning havasi keladi. Demak, mamlakat taraqqiyoti uchun ham insonlar ahil-inoq yashashlari lozim. Otabobolarimiz:

«Yurting tinch - sen tinch», deb bejiz aytishmagan. Istiqloqla erishgach, qisqa muddat ichida O'zbekiston dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirdi. Bunda mashinasozlik, samolyotsozlik kabi sanoat tarmoqlari, yer osti qazilma boyliklari, qishloq va sanoat xo'jaligi katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabimizda bizlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanib ham ma'nau, ham jismonan kamolga yetib, yurtim uchun sodiq o'g'lon bo'lish yagona maqsadim. Men - yosh vatanparvarman.

Mo'minmirzo HUSAINOV, Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi Ibn Sino nomidagi maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi

SHU AZIZ YURT 16-noyabr - Xalqaro diniy bag'rikenglik kuni BARCHAMIZNIKI!

Insoniyatni bag'rikenglikka undash, tinchlik va osoyishtalikni saqlash maqsadida 1995-yil 16-noyabrda YUNESKO Bosh Konferensiyasining 28-sessiyasida Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiya qabul qilingan. Shu yildan boshlab yurtimizda ham bu sana keng nishonlanmoqda.

Mamlakatimizda 2 ming 238 ta diniy tashkilot, 130 dan ortiq millat vakillaridan iborat qariyb 140 ta milliy-madaniy markaz, imom Buxoriy xalqaro markazi, Toshkent Islom universiteti va instituti hamda bir nechta diniy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Respublika baynalmilliy madaniyat markazi barcha fuqarolarning milliy qadriyatlarini rivojlantirish, ularning o'zaro ahilligi va hamjihatligini mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda. Turli millat vakillari diniy bayramlari va e'tiqod amallarini amin-er-



kin ado etmoqda. Jumladan, gruzinlarning Rtveli, ruslarning Maslennitsa, chinlarning Chunsze, uyg'urlarning Sayil, koreyslarning Ovol-Tano va Sollar, tatarlarning Sabanto'y, qrim-tatarlarning Xederlez, bolgarlarning Martinitsa, boshqirdlar va armanlarning Vardavar, yahudiylarning Rosh-a-shana singari ayyomlari har yili uzluksiz nishonlanadi. Bu muayyan millatning o'ziga xos milliy madaniyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, yoshlarimizni jamiki xalqlar madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etayapti.

Bugun O'zbekistonda barcha millat va elatlar o'rtasida qardoshlik rishtalari tobora mustahkamlanib bormoqda. Hamjihatlik va do'stlik hukmron bo'lgan joydagina tinchlik-totuvlik bo'ladi, insonlar orzu-umidlariga erishadilar.

Ozoda TURSUNBOYEVA

SOG'LOM TURMUSH TARZI

Bu keng ma'noli tushuncha bo'lib, u unumli mehnat, faol dam olish, badantariya va sport bilan shug'ullanish, organizmni chiniqtirish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish, zararli odatlardan o'zini tiyish, har yili shifokor ko'rigidan o'tib turish va shu kabi boshqa ko'plab tarkibiy qismlardan iboratdir.



Do'rmondagi 2-musiq va san'at turmush tarzi targ'ibotchisi» tan-maktabida «Eng faol sog'lom lovloning umumta'lim maktablari

o'quvchilari o'rtasida Qibray tumani bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovda «Eng yaxshi insho», «Eng yaxshi rasm», «Eng yaxshi hikoya», «Eng yaxshi she'r», shuningdek, «Eng faol sog'lom turmush targ'ibotchisi» nominatsiyalari bo'yicha maktablarda g'olib bo'lgan faol o'quvchilar ishtirok etishdi.

- Biz ham maktabimizda yil davomida bu borada targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boramiz, tadbirlar, soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil qilamiz, - deydi biz bilan suhbatda 14-umumta'lim maktabining «Kamolot» YOIH boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Xonzoda Xolmatova. - 5-«B» sinfidan Kamola Karimjonova, Maftu-

na Jalilova, 7-«A» sinfidan Hilola Toshpo'latova insho, rasmlar chizish yo'nalishi bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirok etishgan bo'lishsa, Hilolaning sinfdoshi Zarina Mangitova hay'at a'zolarining «Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun nima ishlar qilmoqchisiz?» kabi savolga o'zining shaxsiy fikrlarini mukammal bayon qila olganligi bois, «Eng faol sog'lom turmush tarzi targ'ibotchisi» nominatsiyasida g'olib bo'lib, viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

- Sizning sog'lom turmush tarzining qanday? - degan savolimizga: - Ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish, kun tartibiga rioya qilish, ruhiy osoyishtalik, ozoda-orastalikka rioya qilish, - deya javob berdi Zarina.

Zarina kabi o'quvchilar o'z ixtiyori bilan ezgu ishlarni targ'ib qilishni chin dildan istashar ekan, jamiyatimizda sog'lom, barkamol yoshlarimiz safi yanada kengayaveradi.

Nodira NAZAROVA

N. SULTONOV olgan suratlar

CHINOZLIK rassom qiz



Moviy rangli osmon ostida ko'krak kerib turgan purviqor tog'lar, qiyg'os gullangan bahoriy lolalar, kuzgi ne'matlar natyurmorti...

Kamalak rangidek serjilo rasmlarni kuzatar ekanmiz, inson didi nozikligiga, iste'dodi esa yuksakligiga tan bermay ilojimiz yo'q. Toshkent viloyatining Chinoz tumanidagi Sanoat kasb-hunar kollejining 1-bosqich o'quvchisi Hilola Yo'ldoshevaning chizgilarini ham uning umidli ijod sohibasi ekanligidan darak berib turibdi. Hilola maktabda o'qib yurgan davridayoq Mustaqillik, Konstitutsiya kuni, Yangi yil, Navro'z bayramlariga, fan oyliklariga tayyorlanadigan devoriy gazetalarga chiroyli rasmlar chizib, o'qituvchilarining e'tiboriga tushdi. Tengdoshlarining hayrat va havasi Hilolaga yanada ilhom bag'ishladi. Uning «Kamolot» YOIH Chinoz tumani Kengashi hamda turli o'quv muassasalarining qator tadbirlarida, ijodiy mashg'ulot, seminar-treninglarda faol qatnashishi ijodining sayqal topishiga turki bo'ldi. Ijod namunali bilan ko'pgina ko'rik-tanlovlarda qatnashib, qator faxriy yorliqlar va diplomlar bilan taqdirlandi. Yosh rassom kelgusida bundan-da go'zal manzaralarni qog'ozga tushirishni orzu qiladi. Hilolaning serqirra ijodiga biz ham zafar tilaymiz.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Toshkent matbaa-noshirlik kollejining
1-bosqich o'quvchisi



MO'YQALAM SEHRI

Mirjalol TURSUNPO'LATOV poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 115-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi.



Uni mo'yqalam sehri oshufta bo'lgan yosh qalb-lardan biri, desak adashmaymiz. Tasviriy san'atning sir-asrorlarini o'zlashtirishda ustoz Zilola To'laganovaning hissasi katta bo'layotganini bot-bot ta'kidlaydi.

– Ko'proq chiroyli manzaralarni chizishga harakat qilaman. Portret janrida ishlash ham juda yoqadi. O'zimning avtoportretimni, onam va ukam Javlonbekning rasmini ham chizishga harakat qilganam, – deydi Mirjalol. – «Tong yulduzi» gazetasida tengdoshlarim chizgan rasmlarni ko'rib, ilhomlanaman. Kelgusi yil uchun birinчилardan bo'lib sevimli nashrimga obuna bo'ldim. Gazetaning 7-betidagi «Bolalar sporti» rukni ostida yoritiladigan maqolalarni qiziqib o'qiyman.

Mirjalolning bu sahifaga qiziqishi bejiz emas. Uning o'zi ham sport-

ning suzish, kikkboxing, yakkakurash turlari bilan shug'ullanar ekan. Shuningdek, u Chilonzor tumani «Barkamol avlod» bolalar markazidagi kurash to'garagining faol a'zosi. Onasi Zuhra opaning aytishicha, o'g'li kelgusida shifokor bo'lish orzusida. Xalqimizda: «Yigit kishiga qirq hunar yo'q», degan dono naql bor. O'qib-izlangan, «Tong yulduzi»ga oshno bo'lib, uni mutolaa qiluvchi o'quvchining ezgu istaklari amalga oshishiga aslo shubhamiz yo'q.

Dilorom HOTAMOVA



Dilafro'z bilan faxrlanamiz

O'zining iqtidorli o'quvchilari bilan Namangan viloyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'lgan 17-umumta'lim maktabiga fidoyi ustoz ilhomjon Xolmirzayev yetakchilik qiladi.

Yaqinda tuman XTMFMTE bo'limi, tuman Xotin-qizlar qo'mitasi, maktab jamoasi va mahallalar hamkorligida «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Unda maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi Dilafro'z Arabboyeva o'z mahoratini sinovdan o'tkazdi. Yakunda Dilafro'z 1-o'rinni olishga muvaffaq bo'ldi va tanlovning viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Viloyatda bo'lib o'tgan bellashuvda ham Dilafro'z mutlaq g'olib bo'lib, sertifikat bilan taqdirlandi. Endi u respublika bosqichida ishtirok etadi.

– Dilafro'z judayam tirishqoq va izlanuvchan o'quvchilarimizdan biri, – deydi maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Yoqubjon Urolov. – U «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida ona tili va adabiyot fanidan 2-, «Qadriyatlar beshigisan, mahallam!» shiori ostida o'tkazilgan «Mahalla – mening taqdirimda» ko'rik-tanlovida tuman va viloyatda 1-, tumanimizda o'tkazilgan «Biz yoshlar O'zbekiston tinchligini avaylab-asraylik» shiori ostidagi tanlovda esa 1-o'ringa munosib deb topildi.

Dilafro'zning bu kabi muvaffaqiyatlarga erishishida uning jonkuyar ustozlari – Nilufar Yoqubboyeva, Dilfuza Maqsudova, Bahodir Rahimov, Vasila Nazarova hamda sinf rahbari Rahima Aliqulovalarning hissasi katta.

Xonbibi HIMMAT qizi

Diyorbek Madrahimov Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 15-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi. Shuningdek, u shahardagi 1-bolalar musiqa va san'at maktabining 5-sinfida ham o'qiydi.

USTOZLAR IZIDAN

– Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov, Olmaxon Hayitova qo'shiqlarini tinglaganimda, go'yo sehrli olamga tushib qolgandek bo'laman. Men ham ular kabi san'atkor bo'lishni orzu qilaman. Bo'sh vaqtlarimda sport bilan shug'ullanaman. Badiiy kitob o'qiyman, g'azallar yod olaman. Rus, ingliz, xitoy tillarida gaplasha olaman, – deydi Diyorbek ko'zlari chaqna.

– Besh yoshida bobosi uni oldimga olib kelganida, o'zbek san'atining buyuk darg'alari bo'lmish Murodjon Ahmedovning «O'rtar» va Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov ijro etgan suvoralarni kuylab, meni lol qoldirgandi, – deydi ustoz Juvayov Tojimov. – Diyorbek bugungi kunda tuman, viloyat va respublika miqyosida o'tkazilayotgan tadbirlarda faol qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqda. Hozirda shogirdim «Feruz – 1, 2, 3», «Bayot – 2, 4», «Samarqand ushshog'i», «Qurbon o'lam», «Segoh» kabi katta ashulalarni maromiga yetkazib, ijro etmoqda.

Mustaqilligimiz bergan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan Diyorbek kabi yoshlarga chin dildan havas qilsa, arziydi.

Sofiya NAZAROVA

ALL FOR CHILDREN
(Hammasi bolalar uchun)



Recently United Nations Children Fund (UNICEF) in Uzbekistan and «Ucell» trade mark, part of Telia Company telecommunication group have signed a partnership agreement to help improve the well-being of children in the country.

The collaboration will primarily focus on improving the water and sanitation conditions in 30 remote schools of Djizakh, Kashkadarya, Khorezm, Surkhandarya regions and the Republic of Karakalpakstan, through construction of sanitation facilities and water supply.

These initiatives will support programme of the Government of Uzbekistan to ensure that children stay healthy and are protected from diseases like diarrhea and that parents and teachers promote the lifesaving behavior of hand washing with soap at home and in school.

«Through this important partnership, we will continue using mobile communication technologies to bridge the existing social gaps, contributing to better education conditions for children in Uzbekistan, as well as support the development of local communities» – said Tonu Grunberg, Ucell CEO.



Grammar corner

THE ADJECTIVE
(Sifat)

Continuation

Bir va ikki bo'g'inli sodda sifatlarning qiyosiy darajasiga -er, orttirma darajasiga -est qo'shimchalari qo'shiladi.

Qiyosiy va orttirma darajalarni yasaganda quyidagi imlo qoidalariga rioya qilinadi:

– Agar sifat o'qilmaydigan e harfi bilan tugagan bo'lsa, -er va -est qo'shimchalari qo'shilganda, sifat oxiridagi o'qilmaydigan e harfi tushib qoladi:

brave	jasur	brav-er	brav-est
large	katta	larg-er	larg-est

– Agar sifat qisqa unidan keyin bitta undosh bilan tugagan bo'lsa, qiyosiy va orttirma darajalarning qo'shimchasi qo'shilganda, oxirgi undosh ikkilantiriladi:

big	katta	bigger	biggest
hot	issiq	hotter	hottest

– Agar sifat undoshdan keyin kelgan y harfi bilan tugagan bo'lsa, qiyosiy va orttirma darajalarning qo'shimchasi qo'shilganda oxirgi y harfi i harfiga aylanadi:

busy	band	busier	busiest
easy	oson	easier	easiest

Ikki, uch va ko'p bo'g'inli sifatlarning qiyosiy darajasi oldiga more, orttirma darajasi oldiga most so'zlarini qo'yish bilan yasaladi:

Positive degree (Oddiy daraja)	Comparative degree (Qiyosiy daraja)	Superlative degree (Orttirma daraja)
active – faol	more active	most active
famous – mashhur	more famous	most famous
difficult – qiyin	more difficult	most difficult
comfortable – qulay	more comfortable	most comfortable
interesting – qiziq	more interesting	most interesting

Ba'zi sifatlarning darajalari qoidaga bo'ysunmasdan o'zagi o'zgaradi:

Positive degree (Oddiy daraja)	Comparative degree (Qiyosiy daraja)	Superlative degree (Orttirma daraja)
good – yaxshi	better – yaxshiroq	best – eng yaxshi
bad – yomon	worse – yomonroq	worst – eng yomon
little – oz	less – ozroq	least – eng oz
much, many – ko'p	more – ko'proq	most – eng ko'p

Your teacher DINORA

Feruza ADILOVA

YOU MAY SPRAY!
(Sepsang sepaver)

Painter: YOQUBBEK

Five-year-old Nozimakhon went to the garden with her aunt. She acquainted with children easily. But it didn't continue long.

– You may spray water my brother's «trainer», – said Nozima to Jakhongir who was spraying water on her shoes.

– I shall spray on your trousers then, – said Jakhongir and took water from little brook, and then began to spray again.

– You may spray on my sister's trousers, – smiled Nozima.

– M-m-m..! – Jakhongir thought deeply and began to spray water on Nozima's beautiful dress.

– You may spray freely, this is not mine, it is my little sister's – answered Nozima like a winner.

Jakhongir did not know what to do and threw the pail...



Translated by Mokhlaroyim ERGASHEVA, Jizzakh region

MAKE A DIALOGUE YOURSELF
(O'zingiz dialog tuzing)

Vocabulary base



Do you like to read newspaper? – Gazeta o'qishni yoqtirasizmi?

Yes, I do. I look through the newspapers every day. – Ha, men har kuni gazeta o'qiyman.

Where can I buy newspapers? – Qayerdan gazeta sotib olsam bo'ladi?

Do you sell newspapers? – Gazeta sotasizmi?

How much is this? – Bu qancha turadi?

Is this the latest issue? – Bu oxirgi chiqqan sonmi?

Published once a week. – Haftada bir marta chiqadi.

Subscription rates ... – Obuna narxi qancha?

What is the year subscription fee? – Bir yillik obuna narxi qancha?

Kumush TURG'UNOVA, the pupil of school №54 in O'rta Chirchiq district, Tashkent region

CHECK YOUR KNOWLEDGE
(Bilimingizni sinab ko'ring)

Put the words in order and write question.

1. You/in/summer/go/Where/will/the?
a) Where you will go in the summer?
b) Where go will you in the summer?
c) Where will you go in the summer?

2. What is the capital of Canada?
a) Canada;
b) Mexico;
c) Ottava.

3. Find the translation: Iltimos, nonni uzatib yuboring.
a) Pass me the bread, please;
b) Please, pass me the bread;
c) The bread pass me, please.

4. Mark the verbs: I read an English book.
a) book;
b) read;
c) I.

Sabrina HASANOVA, the pupil of school №31 in Bekobod district, Tashkent region

Masalchi bobo

Davralarda
Muxtor XUDOYQULOV
haqida gap ketganda, ting-
lovchilarning yuzida tabassum
paydo bo'lishiga ko'p bora
guvoh bo'lganman.



Balki o'sha chog'da taniqli masalchi yozuvchi va olimning biror-bir hajviy asari yodga tushgan bo'lsa, ehtimol.

Dastlab, mehnat faoliyatini respublika markaziy gazeta va jumallarida boshlagan ijodkor katta tajribaga ega bo'lib, uzoq yillar O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida bo'lg'usi jurnalistlarga saboq berib keldi.

Ish bilan ijodni baqamti olib borgan ijodkor bugungi kungacha qirqdan ortiq she'riy va nasriy masal-

lar, she'rlar va hikoyalar to'plamining muallifiga aylandi. Asosiysi esa, u kishi bolalar adabiyotiga befarq emas. Uning «Quvnoq alif-be», «Sanoq sonlar suh-bati», «Mittivoyning sarguzashtlari» va «Sindbodning yangi sarguzashtlari» kabi kitoblari bolalarning sevimli mulkiga aylangan.

Kuni kecha Muxtor bobongiz tabaruk 80 yoshni qarshiladi. Yozuvchimiz bilan bu galgi uchrashuv ham sizlarga olam-olam zavq ulashishiga ishonamiz.

Yusuf OG'A

BEBOSH VARRAK

– Men xohlagan tomonimga uchaman, hech kimga bo'ysunmayman, – dedi ipini uzib baland osmonga ko'tarilgan Varrak. Lekin o'sha zahotiyoq chirpirak bo'lib yerga quladi.



BIR BILAN IKKI

– Men sendan ikki barobar kattaman, – deb qoldi Ikki Birga.
– Mendan ikkita bo'lsak, keyin sen bo'lasan, – dedi unga Bir.



TIL BILAN QULOQLAR

– Nega men bittaman-u, sizlar ikkita-sizlar? – deb qoldi Til Quloqlarga.
– Kamroq gapirib, ko'proq tinglash uchun-da, – deydishdi Quloqlar.

KO'Z VA PESHONA

Peshona Ko'z bilan bahslashib qolib, unga:
– Sensiz ham kunim o'tib qolar, – dedi. Ammo bir qadam ham yurmasdan «paq» etib devorga urildi.

O'ZBEKISTONIM MENING

Dilda borim izhor etay,
Aziz bo'stonim mening.
Men sen bilan baxtim kuylay,
O'zbekistonim mening.

Ulg'aytirding Onam bo'lib,
Sirdoshim, hamxonam bo'lib.
Eng aziz ostonam bo'lib,
Bog'u bo'stonim mening.

Manguberdi daryo kechgan,
Boburing bor dunyo kezgan.
Shukur, Istiqlolga yetgan,
Mard-u maydonim mening.

Dildora NABIYEVA,
Toshkent pedagogika kolleji o'quvchisi

BETAKRORIMDIR VATAN

Keksalari e'zozda,
Har ishdadir ozoda.
Dilbandlari xonzoda,
Betakrorimdir Vatan.

Jahon ichra yagona,
Qalbidagi durdona.
Ko'zlamasin begona,
Betakrorimdir Vatan.

Nurafshon har tong otar,
Shuur-la kunlar botar.
G'animlari dong qotar,
Betakrorimdir Vatan.

Ko'zim oq-u qorasi,
Har bir ishning chorasi.
Gulzorlarning sarasi,
Betakrorimdir Vatan.

Sensan yurakda borim,
G'ururim, iftxorim.
Mening ko'ngil bahorim,
Betakrorimsan, Vatan!

Farahzoda SAIDOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi
4-akademik litseyning 1-bosqich o'quvchisi



Pushaymon

(Hikoya)

Bugun Behzodning tug'ilgan kuni. Uyg'a mehmonlar, o'rtoqlari kelishadi. Aqida opa erta tongdan turli xil shirinliklar pishirish bilan band. Opalari Umida bilan Nilufar chiroyli dasturxon bezatishyapti. Faqat dadasi uyda emas, toqqa ekspeditsiyaga ketganiga bugun 12 kun bo'ldi. Shu payt telefon jiringlab qoldi. Behzod shoshib og'shakni ko'tardi.

– O'g'lim, tinchmisizlar? Tug'ilgan kuning bilan tabriklayman.

Dadasining ovozini eshitgan Behzod sevin-ganidan qichqirib yuboray dedi:

– Dadajon, bugun kelasizmi?

– Albatta, kechqurun uyda bo'laman. Senga ajoyib sovg'a olib ketyapman.

Kechqurun hamma yig'ilib, endigina o'yin-kul-gi boshlangan edi hamki, birdan eshik qo'ng'irog'i chalinganday bo'ldi. Behzod: «Dadam, dadam keldilar», deya tashqariga qarab yugurdi. Eshik-ni ochganida ostonada kichkinagina kiyik bolasi-ni ko'tarib, otasi kulib turardi.

– O'g'lim, senga aytgan ajoyib sovg'am

mana shu, – dedi Olim aka uni bag'riga bosarkan. Behzod ko'zlariga ishonmadi. Chunki bunaqasini tushida ham ko'rma-gandi-da. O'rtoqlarining rosa havasi kel-sa kerak.

– Bekor qilibsan, bolam, – dedi shu payt Nuri buvi, – tog'-toshlarga o'rgangan jonivor kichik hovlida yashay olarmikan?

– Xavotir olmang, oyijon, hammasi yaxshi bo'ladi. Tog'dan topib oldim. Juda bo'lmasa, hayvonot bog'iga berib yubora-miz... Behzod bir sevin-sin, dedim-da.

Ertasi kuni ota-bola kiyik bolasi uchun maxsus joy hozirlashdi. Behzod unga har xil shirinliklar, konfetlar berib ko'rdi. Lekin uloqcha hech birini og'ziga olmadi. Keyin buvisining maslahati bilan qo'shnilarnikidan sut olib chiqib, shishaga solib ichirdi. U sutni ichib olgach, dam sakraydi, dam yuguradi. Buni ko'rgan Behzod quvonib ketdi.

Oradan uch-to'rt kun o'tdi. Behzod o'qituvchisi Go'zal opa va sinfdoshlarini kiyikchani ko'rsa-tishga olib keldi. Lekin, qay ko'z bilan ko'rsin-ki, kiyikcha bir chekkada qimirlamay yotardi. Uni ko'rib Behzod yig'lab yubordi. Ularning oldiga kelgan buvisi ham juda xafa bo'ldi.

– Essizgina. Dadangga aytdim-a, tog'-u toshda, ochiq havoda yugurib yurgan jonivorni qamab qo'ysang, qanday yashaydi, deb.

Behzod dadasining aytgan gaplarini esladi: «O'g'lim, kiyikchani hayvonot bog'iga topshi-ra qolaylik. Har qalay yerdan mutaxassislar, bir-ikkita bo'lsa ham kiyiklar bor. Istagan vaqtingda borib ko'raverasan». Lekin Behzod bunday qilishga ko'nmagan, dadasiga yalinib olib qolgan edi...

Muattar ALIMBEKOVA,
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi
214-umumta'lim maktabi o'qituvchisi



Nargizada sportga qiziqish bervaqt uyg'ondi. Erta turib, yugurishga chiqar va turli mashqlar bajarardi. Onasi qizidagi ishtiyoqni ko'rib, uni sportning biror turiga berishga qaror qildi.

TENGDOSHLARIGA O'RNAK

Nargiza karatega o'zgacha qiziqishi borligini onasiga aytdi. O'sha kundan boshlab u bu sport turi bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Ayni chog'da ko'plab yutuqlarga erishib kelayotgan iqtidorli tengdoshingiz Sergejli tumanidagi 300-umumta'lim maktabining 9-sinfida tahsil oladi. Bugunga qadar u shahar, respublika va xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etib, yaqinlari ishonchini oqlab kelmoqda.

– Onasi Nargizani yonimga olib kelganida, uning ko'zlari porlab turardi. Maqsadlari sari dadil qadam tashlagan bu shogirdim mehnatsevarligi bilan boshqa bolalardan ajralib turadi, – deydi murabbiyi Begzod Abdulhamidov.

Bunday yoshlarning ko'pligi dilimizni quvonchga to'ldiradi. Ularning erishgan yutuqlari bilan esa har qancha faxrlansak, arziydi.

Charos XUSHVAQTOVA



Bolalikdan qo'lga kiritilgan dastlabki g'alabalar insonning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shish bilan birga, keyingi yutuqlariga poydevor vazifasini o'taydi.

IQBOLNING IQBOLI PORLOQ

Iqbol Meliqo'ziyev Farg'ona viloyati, Buyayda tumanidagi 29-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi. U bir necha yildan buyon taekvandoning WTF turi bilan shug'ullanadi. Yaqinda yosh sportchi tumanlar o'rtasida o'tkazilgan ochiq birinchilikda 31 kg vaznda 3-o'rinni egalladi.

– Musobaqada g'olib bo'lishim bilan onamga qo'ng'iroq qildim, – deydi yosh sportchi o'z taassurotlarini o'rtoqlashib. – Ular sevinganlaridan yig'lab yubordilar. Uyg'a kelsam, mahalladoshlar jamuljam bo'lib o'tirishibdi. Hammalari meni sportdagi ilk g'alabam bilan qutlashdi. Hozirgi kunda respublika musobaqalariga katta tayyorgarlik ko'rmoqdaman. Kelajakda Dmitriy Shokin, Jasur Boyqo'ziyev kabi yetuk sportchi bo'lib, yurtim bayrog'ini ko'klarga ko'tarmoqchiman.

Sohibjon HOTAMOV

MALIKALAR MAYDONI

Yoshlarimiz orasida sport va ilm-fan sohalarida qator yutuqlarga erishayotgan iqtidor egalari safi kengayib bormoqda. Bugun biz sizlarni badiiy gimnastika bo'yicha bir necha musobaqalar sovrindori Azizaxon

Jumatova bilan tanishtiramiz.

Tengdoshingiz Yakkasaroym tumanidagi 89-umumta'lim maktabining 5-«V» sinfida o'qiydi. Aziza hali yosh bo'lsa-da, sportga mehri bo'lakcha. Sport turlari ichida eng nafis hisoblanish badiiy gimnastika uning asosiy mashg'ulotiga aylangan. Sportchimiz shahar va respublika musobaqalarida muntazam ravishda g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda. Kelajakda u yetuk gimnastika ustasi bo'lishni orzu qiladi. Bu yo'lda unga Iroda Qodirova murabbiylik qilmoqda. Biz Azizaxonga ulkan zafarlar va g'alabalar tilab qolamiz.

Yoqubbek HALIMBEKOV



SAYFULLA BUVANING QUVONCHI

Azizjon shahar markaziy o'yingohidagi yengil atletika to'garagida yugurish bilan shug'ullana boshlaganini eshitgan Sayfulla buva hammadan ko'p quvondi. Bobo nabirasining sportdagi yutuqlarini kunora so'rab turar, yutuqlarga erishsa, albatta, alqab qo'yardi. Sal o'tmay, Azizjon yangi yo'nalish - bosqon uloqtirishga qiziqib qolganini aytganida, bobosi avvaliga xushlamaganday bo'ldi. So'ng «Mayli, o'zingni sinab ko'r», dedi. Yosh qahramonimiz sportning bu turi bo'yicha ham tengdoshlari ichida yaxshi natijalar ko'rsatayotgan bo'lsa-da, nimadandir ko'ngli to'lmasdi. Nihoyat, bir kuni bobosiga boks bilan shug'ullanmoqchi ekanini aytdi.

– Boks bilan jiddiy shug'ullananam desang, qarshiligim yo'q, – dedi bobosi.

Shundan so'ng yosh sportchi shahardagi 4-umumta'lim maktabida faoliyat ko'rsatayotgan boks to'garagida taniqli murabbiy Raimjon Aljonov qo'l ostida shug'ullana boshladi. Joriy yilda mustaqilligimizning 25 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan turnirdagi g'alabasi unda o'ziga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamladi. Namangan, Qo'qon shahrida o'tkazilgan musobaqalardagi ko'rsatgan natijalari bois mutaxassislar nazariga tushdi.

Kuni kecha Chirchiq olimpiya zaxiralari kollejida 2003–2004-yillarda tug'ilgan

o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan turnirda muvaffaqiyatli ishtirok etgan Azizjon 2-o'rinni egalladi.

– Musobaqa juda qiziqarli o'tdi. Turli viloyatlardan kelgan tengdoshlarim bilan tanishib oldim, – deydi Azizjon taassurotlari bilan o'rtoqlashganda. – Bellashuvlar payti yana bir quvonchli voqea ham yuz berdi. Mening sevimli bokschim, olimpiada o'yinlari bronza medali sovrindori Murodjon Ahmadaliyev chiqishlarimizni tomosha qilibdi. Menga ham ko'p maslahatlar berdi. U kishiga kelajakda olimpiya o'yinlarida qatnashib, sovrindorlar safidan joy olishga va'da berdim.

Yosh bokschi Chust shahrida-

gi 64-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi. 64 kg vazn toifasida ringga chiqmoqda. Eng asosiysi, u bergan va'dasining ustidan chiqishga harakat qiladi. Ayni chog'da esa poytaxtimizda bo'lib o'tadigan nufuzli musobaqaga puxta hozirlik ko'rmoqda. Uning shashti baland. Bu esa har bir sportchi hayotida muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.


Yusuf ABDULLAYEV



Sh. MAXMADIYEV olgan surat

HAFTA KUNLARINING SAYOHATI

Chiqdi sayrga,
Haftajon xola.
Oldida yetti
Shumtaka bola:
Dushanba,
Seshanba,
Chorshanba,
Payshanba,
Juma, shanba...



Iye, qani yakshanba?
Xolamiz o'yga toldi:
– U qayerga yo'qoldi?
Hamma zir-zir chopishdi,
Voy, nihoyat topishdi.
Uxlab yotar dam olish,
Deya yakshanba pish-pish.
Haftajon koyir uni,
O'rmi bordir har kunni.

Vaqtini, aytaman takror,
Qadriga yetmoq darkor.
Ishlar qilsak yaroqli,
Har dam o'tar maroqli!



Dilnavoz NAJIMOVA,
TKTI qoshidagi Chirchiq akademik
litseyi o'quvchisi

TEZ AYTISHLAR

Charos chinni choynakka chamanzor-
dagi chiroyli chinnigulni chizdi.



Qishdagi qorning
qalinligi Qosimni
qiynab qo'ydi.

Buvim Botirni boshqa bola-
laridan boshqacha boqqanlar.



Yusuf yuqori
yutuqqa yugurib-
yugurib yetishdi.

Laylo Latofat-
ga lolazordan
lola keltirdi.

E'zoza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
193-umumta'lim maktabining 9-«D» sinf o'quvchisi



Yo. HALIMBEKOV chizgan rasmlar



KUZ MANZARASI

(Qatra)

Kuz. Havo ancha salqin. Quyosh ham bulutlar orasiga berkinib olgan. Atrofdagi daraxtlar barglarini to'kib, qishki yuquga tayyorgarlik ko'rmoqda. Yo'laklarga xazon to'shalgan.

Erta tongdan maktab tomon shoshaman. Yomg'irning mayda-mayda tomchilari yuzimga uriladi. Oltin barglar oyog'im ostida qandaydir mayin kuy chalgandek bo'ladi. Bunga esa yomg'ir tomchilari jo'r bo'ladi. Maktab darvozasiga yetganimda esa yomg'ir tindi. Quyosh ham erinibgina zarrin nurlarini yerga sochdi. Atrofda yana qushlarning sho'x chug'urlagan ovozi yangradi.

Avazbek ARABBOYEV,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi
24-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

Pazanda qizga!



Aziz kichik bekalar!
Nonushtani tez va oson tayyorlamoqchimisiz?
Bugun sizlarga tuxumdan tayyorlanadigan antiqa taomni o'rgatamiz. Bilasiz, tuxum kalsiy moddasiga juda boy. Uni iste'mol qilsangiz, suyaklaringiz mustahkam bo'lib, tishlaringiz ham baquvvat bo'ladi.

QIYMALI TUXUMLAR

**Kerakli masal-
liqlar:** 4 ta tuxum,
200 gramm qiyma,
2 ta qizil sabzi, 2 dona piyoz,
60 gramm o'simlik moyi, tuz.

Tayyorlanishi: ishni tuxumlarni qaynatishdan boshlaymiz. Pishgan tuxumlarni o'rtasidan tikkasiga bo'lib, sarig'ini ajratamiz.

Qiymani piyoz, sabzi solib yog'da qovuramiz. Sovugach, tuxum sarig'ini maydalab to'g'rab, qiymaga qo'shamiz. Tuz, murch sepib, tuxum ichini qiyma bilan to'ldiramiz, so'ngra ko'kat bilan bezatib, likopchalarga solamiz.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Javoblarni chizmada belgilangan xonadan so'zlar ta'rifi atrofiga yozish bilan skandovdni hal eting. So'ng chizmaning o'rta qismidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqni bajaring. Bunda ulardan taniqli ingliz adibi Jonatan Svift yozib qoldirgan hikmatli so'zni bilib olasiz.

1	2	3	KITOB					5	
«Alpo-mish» qah-ramoni	Hozir-javob she'r	Yirik nazmiy asar						Sa'diy Sheroziy asari	«Semurg' yoki Parizod va ...»
6	10	4	12	2	1	*	9	8	7
O'zbek ma'rifat-parvar shoiri	*	11	9	13	6	9	3	5	*
8	*	7	9	13	4	5	4	13	*
Tantavor she'r	MADHI					9			
9	Kulgili kichik hikoya	11	12	13	10	11	12	13	
Qudrat (Shoir)	Nasriy asar janri	Ibratli hikoya, rivoyat	Topishmoq she'r	«Ufq» romani qah-ramoni					

Tuzuvchi: Foziljon O'RIPOV

Tong yulduzi

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SO'G'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir G'ANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Ferez MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
SHAXOBIDDIN
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 25441
Buyurtma - S 7481

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08